

## **YANGI O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY VA SOTSIAL FAOLLIGINI YUKSALTIRISH OMILLARI**

Ismatova Madina Tashbul qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti  
madina\_ismatova95@mail.ru

Umirova Nargiza Tashbulovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti

### **Annotatsiya**

Ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkomolligi ham ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilangan. Ayolni e'zozlash, unga ehtirom ko'rsatish Sharq xalqlariga, jumladan, o'zbek xalqiga xos xususiyatdir. Maqolada yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini yuksaltirish, ularga bo'lgan faollik va tashabbuskorlik yanada takomillashtirish kabi masalalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** intellektual salohiyat, oila, mehribon ona, oila instituti, mo'tabar ayol, ayollarni qadrlash.

### **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqida O'zbekiston deb atalgan jonajon Vatanimizda har qaysi mard yigit avvalo mehribon onasi, oilasi, farzandlari baxtli bo'lishini albatta istaydi, Hazrat Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, bu yo'lda o'zining butun borlig'ini bag'ishlashga tayyor turadi.

### **ASOSIY QISM**

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 400 ga yaqin opa-singillarimiz rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib bormoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo'lib, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida mehnat qilmoqda.

O‘nlab opa-singillarimiz “O‘zbekiston Qahramoni”, “O‘zbekiston fan arbobi”, “O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston xalq shoiri”, “O‘zbekiston xalq artisti” singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, medal va ordenlariga sazovor bo‘lgan. Ularning orasida 500 nafardan ortig’i fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o‘z bilimi va iste’dodi bilan Vatanimiz ravnaqiga astoydil xizmat qilib kelmoqda.

Jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko‘rsatgan, o‘zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishi, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo‘shgan xotin-qizlarga beriladigan "Mo’tabar ayol" ko‘krak nishoni ta’sis etildi.

2018 yil 2 fevralda PF-5325 —Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Prezident Farmoni e’lon qilindi. Bunda mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minalash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa ta’lim muassasalarida rahbar ayollarning o‘quv jaraëni samaradorligini oshirish sohasidagi olib boraётган ishlari tahsinga sazovordir.

Ayni paytda har qanday jamiyatning asosiy «ko‘zgusi» – xotin-qizlar ekanligi shubhasizdir. Chunki, jamiyatning ijtimoiy tuzumi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘sha jamiyat aholisi turmushining farovonlik darajasi, oilalar barqarorligi, kelajak avlod – farzandlar tarbiyasi, iqtidori, jamiyatdagi intellektual salohiyat, ma’naviyat va madaniyat, ma’rifat, qo‘yingki, barcha-barcha sohalarda erishilgan yutuqlar shu jamiyat taraqqiyotiga xotin-qizlarning qo‘shadigan hissasi va o‘sha jamiyatning ayollarga munosabati bilan belgilanadi. Xalqimiz orasida «Ayol bir qo‘li bilan beshikni, ikkinchi qo‘li bilan dunyonи tebratadi», degan ma’noli aytilmagan. Buyuk ajdodlarimiz, millatimiz tarixidan ma'lumki, o‘zbek ayoli, o‘zbek onalari nafaqat o‘z elimiz, balki dunyo hamjamiyati, umumbashariyat taraqqiётiga ulkan hissasini qo‘shgan mashhur o‘g‘lonlari – jasur, botir Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi sarkardalari, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G‘ijduvoniy, hazrat Xo‘ja Ahror Vali kabi aziz avliyolari, jahonni turli jabhalarda lol qoldirgan olimlari – Abu Nasr Forobi, Abu Rayxon Beruniy, Imom Al Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek, adiblari – Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

Bobur, Umar Hayèm, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qahhor, Oybek singari insonlar bilan mashhurdirlar. Mag'rur, jasur va dono To'maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiyalar nomlari nafaqat biz uchun, balki ilg'or fikrli dunyo ahli uchun ham iliq va ulug' ekanini hammamiz yaxshi bilamiz.

Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etuvchi xotin-qizlarning hayotda munosib o'rinalarini egallashi, o'zlaridagi salohiyatni namoyon etishlari va jamiyatda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarda ularning to'laqonli ishtirokini ta'minlash maqsadida ilk mustaqillik yillaridan boshlab, davlatimiz tomonidan imkoniyatlar yaratishda, avvalo, ularning onalik va oiladagi bosh tarbiyachilik vazifalariga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Chunki bu ikkala o'ta muhim vazifani bajarishda ayolning jamiyatdagi mavqeい, nufuzi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlanganligi, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yetukligi, siyosiy ongi, ijtimoiy tafakkuri, huquqiy madaniyati va savodxonligi beqiyos ahamiyatga molikdir.

Xotin-qizlar mavqeini oshirish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularidagi salohiyatning namoyon etilishi uchun jamiyatda yaratilgan imkoniyatlar doirasini yanada kengaytirish – o'z-o'zidan oilalarning mustahkamlanishi, jamiyat taraqqiyoti rivoji, qolaversa, xalqaro miqyosda ham mamlakatimiz nufuzining yanada yuksalishi, farzandlar tarbiyasining yaxshilanishi, xotin-qizlardan aksariyatining nafaqat o'z oilalari uchun, balki jamiyat taraqqiyoti uchun, jamiyat rivoji uchun fidoyilarcha mehnat qilishlarining faollashuvi, huquqiy demokratik jamiyat qurish jaraenida ayollar ishtirokining bundan-da ko'payishiga ko'maklashishi muqarrar

Ayol qadrini qanchalik yuqoriga ko'tarishga tuyassar bo'lsak, milliy g'ururimiz, ma'naviyat va madaniyatimiz yanada yuksalishi, oilalarimiz barqarorligi ta'minlanishi, halol va pok, fidoyi, vatanparvar, jamiyatga foyda keltiruvchi, millatimizni butun jahonda ko'z-ko'z qildiruvchi farzandlarimiz soni kundan-kunga ko'paya borishi tabiiy holdir. Zero, har tomonlama faol va oqila, dono, izlanuvchan, zamonaviy ayol mehnatidan, salohiyatidan nafaqat uning oilasi, balki butun jamiyat manfaatdor bo'lishi chin haqiqatdir va biz qurayotgan jamiyatning og'ir yukini dadil ko'tarib, uning poydevorini mustahkamlab turadigan asosiy kuch – jamiyatimizdagи har bir oila, har bir inson, har bir fuqaro, shu jumladan, xotin-qizlar ekanligini unutmasligimiz kerak.

Mamlakatimizda ayollarning o'z iqtidorlarini namoyon qilish qobiliyatiga yarasha ishlashi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ana shu imkoniyatlardan foydalanish



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

darajasi esa unga bog'liq. Agar ayol o'zini nafaqat ayol, balki inson sifatida jamiyatdagi o'rnini anglasa, unga tabiat ato etgan qobiliyatni to'g'ri yo'naltira olsa, faqat oila qurishni emas, balki halol mehnati bilan jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishi lozimligini hayotining maqsadi deb bilsa, bu ayol albatta o'z haётidan qanoatlana oladi. Agarki faqat oilani hayotining asosiy maqsadi qilsa, pirovard natijada namoён qilinmagan qobiliyat, foydalilmagan imkoniyat, erishilmagan yutuqlar u uchun armon bo'ladi va qalbida barcha narsaga erisha olgan ayollarga nisbatan hasad tuyg'usi shakllanadi, bu uning g'azabnok bo'lishiga olib keladi.

Shunisi quvonarlik, so'nggi yigirma yilda o'z maqsadini aniq bilgan, oila bekasi, farzandlarining onasi bo'lish bilan bir qatorda, jamiyat taraqqiyotining turli sohalarida kasbi orqali kamolotga erishayotgan ayollarning soni ko'payib bormoqda. Yurtimizda barcha uchun «Teng imkoniyat va teng huquqlar belgilangan», shu bois maosh olish, ishga kirish, ma'lum sohada muayyan yutuqlarga erishish hox erkak yoki ayol bo'lsin, bu nsonnning maqsadli faoliyatiga bog'liq. Ayolning har qanday ishga mas'uliyati ikki hissa kuchli. Qayerda bo'lmisin, ta'lim tizimimi, sog'liqni saqlash, transport sohasimi va boshqa bo'lishidan qat'iy nazar ayol o'z vazifasini ortig'i bilan bajara oladi. Biroq ba'zi sohalarda, to'g'rirog'i ayollarni rahbar lavozimiga tayinlashda ularga nisbatan ishonchsizlik ustuvorlik qiladi. Masalan, O'zbekistonda 70 dan ortiq Oliy o'quv yurti bor, biroq ularning birortasini ayol boshqarayotgani yo'q. Lekin rahbar o'rinnbosarlik vazifasida bir qancha aёllarimiz: professorlar: G.Boqiyeva, B.Abdullayeva, G.Rixsiyeva va boshqalar faol, na'munali rahbar sifatida ishlab kelmoqdalar, 90-yillarda esa professor Halima Alimova Toshkent tekstil va yengil sanoat instituti rektori lavozimida ishlagan va aynan shu institut O'zbekiston Respublikasi test markazi tomonidan o'tkazilgan attestatsiya va akkreditatsiyadan eng yuqori ball bilan birinchi o'rinni egallagan. Opaning boshqa ishga o'tganligiga ancha yillar bo'lsada institutda haligacha ular o'rnatgan temir tartibga rioya qilib kelinmoqda. Nima uchun?, shuning uchunki rahbar ayol o'z jamoasini oilasi sifatida qabul qiladi, xo'jalikdagi yutuq va kamchiliklarni sarhisob qilib, har qanday muammoni hal qilishning eng oson, beozor yo'lini tanlaydi.

Shu bois ayollarimizga rahbar lavozimlari ishonib topshirilsa, ular orasida O'zbekistonning biror davlatda Muxtor elchisi, vazir, vazir o'rinnbosari va hokazo kabilarni aёllarimiz hech ikkilanmay eplagan bo'lar edi. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ayolning shaxs sifatida kamolotga erishuvida erkakning o'rni juda ham salmoqli. Chunki faqat er qo'llasagina, aёл o'z maqsadiga erkin erisha oladi,



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

faqat er qo'llasa ayol jamiyatda o'z o'rnnini topadi, faqat er tushunsagina oilada o'zaro ishonch, sadoqat va hurmat bo'ladi, faqat arning madadini his qilsagina ayol chinakam baxtli bo'ladi va qalbi orom topadi.

Bir zamonlar ayollarga zaifa, ojiza deyishgan. Bu so'zlar hozir ham onda-sonda uchrab turadi. Fikrimizcha, hech bir davrda ael ojiza bo'lgan emas va hozir bunday emas. Chunki faqat ayol Alloh unga ato etgan to'lg'oq azobini sabr-toqati, kuchi, bardoshi bilan yenga oladi, to'lg'oq azobining nimaligini esa faqat ael biladi. Ayol har qanday musibatni ko'tarishi, har qanday jismoniy og'ir ishni bajarishi mumkin. Faqat ael ishdan qaytib, charchoqni ham sezmasdan ovqat pishirishi, kir yuvishi, bolaga qarashi, mehmon kutishi, mehmonga borishi, turmush o'rtog'inining ko'nglini olishi va bu ishlarni kundalik yumush sifatida bajarishi mumkin.

Bugungi kunda ayol va erkakning teng huquqligi haqida ko'p fikrlar ilgari surilmoqda. Avvalo, har ikkalovining mas'uliyati, o'zining oila oldidagi burchini to'liq his qilishi, o'zaro hurmati, oiladagi muammolarning yechimini bafurja birgalashib hal qila olishi, erkakning o'zini aelidan yuqori qo'ymasligi, bepisand bo'lmasligi, shuningdek, ayolning ham eriga nisbatan aynan shunday munosabati, oila byudjetini talon-taroj qilmasligi kabilardir. Agar ayol teng huquqliman deb, onalik mas'uliyatini unutsa, o'zini faqat ishga bag'ishlasa-yu, uyda saranjom-sarishtalik bo'lmasa, bunday «tenglik» hech kimga tatimaydi. Agar er ko'chaxandon uy-zindon bo'lsa, ayolining boshini ta'nayu dashnomlardan aritmasa, bunday oiladan baraka ketadi.

Kun bo'yi ishdagi tashvishlardan charchab uyga kelgan erkak albatta ayolidan e'tibor, mehr kutadi. Agar ayol shu e'tibor va mehrni bera olsa erkak qayerda bo'lmasin uyiga oshiqadi, ayoliga tashna bo'lib yashaydi va bu tashnalik uni hech qachon tark etmaydi. Yevropadagi tadqiqotlarga ko'ra ovqat pishirish, kir yuvish, tikish-bichishni biladigan ayollar soni kamayib bormoqda ekan. Xo'sh, bu borada bizdagi vaziyatni qanday baholash mumkin. Alovida ta'kidlash joizki, kir yuvish, ovqat pishirish o'zbek ayollari uchun muammo emas, bu kundalik vazifalar, tikish-bichishga kelsak, ilgari ham hozir ham bu ishni hamma ayol qilgan emas, albatta bundan tugma qadash kabi mayda-chuyda tikishlar mustasno. Ayni paytda, ilgarigi ayollardan farqli o'laroq, bugungi kunda murakkab jarrohlik operatsiyalarini qilayotgan, katta hajmli katta ilmiy asarlarni yaratayotgan, davlat boshqaruvida (kam sonli bo'lsada) hech og'rinmay ishtirot etayotgan, 100-200 hektarlik yerlarda bog'dorchilik yoki paxtachilik bilan shug'ullanib, katta muvoffaqiyatlarga



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

erishayotgan va umuman qaysi soha bo‘lmasin, boshlagan ishlarini oxiriga yetkaza olayotganligini ham e’tirof etish lozim.

### XULOSA

Xulosa qilib shuni ham ta'kidlash lozimki, ilgari ayollar faqat oila ishlari bilan mashg‘ul bo‘lganlar. XXI asr ayollarining esa farzand tarbiyasi, oilasiga sadoqatidan tashqari boshqa qadriyatlari ham shakllandi. Bu ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilishi, egallagan kasbi orqali jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish istagidir, bu ijobiy holatdan tashqari takomillashgan maishiy xizmat ko‘rsatish texnologiyalari muayyan darajada qo‘l mehnatini osonlashtirdi.

Bugungi o‘zbek ayoli kim: boshqaruvchimi yo buysunuvchi, ergashuvchimi yo ergashtiruvchi? Zamonaviy o‘zbek ayoli portretiga qanday chizg‘ilar bilan boyitish mumkin? Ayol barcha davrlarda eng avvalo «Ona»dir, keyin esa u boshqaruvchi va buysunuvchi, ergashtiruvchi va ergashuvchi hamdir. Onalik bu tabiat qonuni va uni buzishga harakat qilganlar adashganlar toifasiga kiradi. Ijtimoiy faoliyati esa uning iqtidori, qobiliyati, tashabbuskorligi bilan belgilanadi. Hech bir davrda ayollar faqat boshliq bo‘lishi yoki faqat ergashishi lozim deb hisoblanmagan. Aksincha hozirgi kunda aellarga munosabat ijobiy tomonga o‘zgarib, ularning ona bo‘lishi bilan birga potentsial qobiliyatlaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyev. Xalqimizning rizoligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2018.–508 b.
2. Sh. Mirziyoyev. Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019.– 400 b
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sون Farmoni. 07.03.2022. www.lex.uz
4. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent:O‘qituvchi, 2021. 184 b.
5. M. Toir. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. № 45 (567). 2022-yil 3-mart, – 6b.
6. <https://daryo.uz/2022/03/06/shavkat-mirziyoyev-oqila-ayollar-harakatini-tashkil-qilishni-taklif-etdi/>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdag‘i nutqi. 2022-yil 8-mart.



**Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies  
Hosted online from Moscow, Russia**

**Date:** 11<sup>th</sup> January, 2023

**ISSN:** 2835-5733

**Website:** econferenceseries.com

- 
8. Q. Rahimboyeva. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. № 42 (564). 2022-yil 26-fevral, – 6 b.
  9. B. Rajabova. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi № 50 (572). 2022-yil 10-mart, – 6 b.

**Internet saytlari:**

1. [www.oila.uz](http://www.oila.uz)
3. [www.mahalladosh.uz](http://www.mahalladosh.uz)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)
6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)